

## Fitratning “Oila” Asarida Frazeologizmlarning Qo‘Llanishi Va Semantik Xususiyatlari

*D. S. Ne‘matova*<sup>1</sup>

**Аннотация:** В статье анализируются семантические особенности фразеологизма, использованного в произведении Абдурауфа Фитрата «Семья или процедуры управления семьей».

**Kalit so‘zlar:** turg‘un birikma, frazeologik birliklar, frazeologizm, frazema, badiiy-estetik ifoda, konnotatsiya.

Ma‘lumki, tilimizda mustaqil leksik ma‘noga ega bo‘lgan alohida so‘zlardan tashqari, ma‘no jihatidan shunday so‘zga teng, ammo ikki va undan ortiq so‘zning turg‘un birikuvidan tashkil topgan frazeologik birliklar ham mavjud. Ularning ma‘nolari tarkibidagi so‘zlarning yaxlit ma‘nosi asosida yuzaga keladi va inson xotirasida bir butun va tayyor holda saqlanib, gapdagi boshqa birliklar bilan xuddi alohida so‘z kabi munosabatda bo‘ladi.

Frazemalar tilning boyligi va ta‘sirchanlik quvvatini, ayni paytda qadimiyligi hamda milliy-madaniy o‘ziga xosligini baralla namoyon etadigan xolis va tiniq ko‘zgudir. Tilning boyligi, tarixan tadrijiy takomili badiiy-estetik ifoda imkoniyatlarining sarhadsizligi xalqning milliy-madaniy olami va mentaliteti betakrorligining isbotidir [1. B. 14].

Har qanday mahoratli yozuvchi o‘z asarlarini xalq iboralari, matallari, maqollar bilan to‘yintiradi. Ba‘zan muallif nutqi orqali, ba‘zan asar qahramonlari nutqida qo‘llangan frazemalar asarning badiiy quvvatini oshirishga va ta‘sir kuchini ta‘minlashga xizmat qiladi. “O‘zbek tilida xalqning o‘ziga xos tafakkur tarzini, badiiy tasavvurini, qudratini ko‘rsatuvchi frazemalar mavjud. Frazemalar, umuman olganda, hayotdagi voqea-hodisalarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalidir” [2. B. 40]. Yozuvchi o‘z asarlarida frazemalardan voqelikni tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq gavdalantirishda foydalanadi. Tabiiyki, yozuvchi to‘g‘ri kelgan, har qanday frazemani o‘z asariga olib kirmaydi, balki asar tilining ta‘sirchanligini oshiradigan, badiiy-estetik niyatiga xizmat qiladigan, asar qahramonining xatti-harakati va ruhiyatini ochib beradigan chinakam xalq iboralaridan saralab tanlab oladi.

Odatda, shoir va yozuvchilar badiiy ijodda ko‘pincha frazeologizmlar ifodasiga alohida e‘tibor bergan holda, ularning asarlari mazmuniga mohirlik bilan singdirib yuborilgani kuzatiladi. Bunday o‘ziga xoslik hatto Abdurauf Fitratning ilmiy-ommabop uslubda yozilgan milliy tarbiyaga oid “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida ham aks etgan. U ham o‘z asarlarining ta‘sirchanligini ta‘minlash maqsadida frazemalardan ustalik bilan foydalanadi.

Fitratning mazkur asarida oila masalasi, uning jamiyat hayotidagi o‘rni, tartib, oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlari, ota-ona, farzandlarning huquq va burchlari, bolalarni tarbiyalash va unda yosh onalarning o‘zini qanday tutishi kerakligi haqidagi qarashlarida ham xalqimiz jonli tiliga aloqador frazeologizmlar uchraydiki, ularni keltirish orqali asarning milliy ruhi, realligi kuchaytirilgan.

Frazeologizmlar (frazemalar) shakl va ma‘no jihatidan o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan birlik sanalib, ular ikki yoki undan ortiq so‘zlarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi, turg‘un shaklda ishlatilib, bir tushuncha ifodalab keladi. Nutqning ta‘sirchanligini ta‘minlovchi frazeologik birliklar o‘ziga xos semantik qurilishga ega bo‘ladi.

<sup>1</sup> Maqolada Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida qo‘llangan frazeologizmning semantik xususiyatlari tahlil qilingan.



Frazeologizmlar jonli nutq hosilasi sanalib, unda davriylik xususiyati ustuvor bo'ladi. Birikmalarning turg'unlashuvi va undan anglashilgan ma'noning konnotativ xarakterga egaligi frazemalar ma'nosining ham muqimligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham frazemalarda konnotatsiya ustuvor bo'ladi. Shuningdek, turg'un birikma komponenti va u haqdagi tushuncha diaxron tadqiqotga moyil bo'ladi. Masalan, *"tegirmoniga suv quymoq"* iborasi ishlatilishiga ko'ra passiv bo'lgani sababli va bugunda suv tegirmoni yo'q bo'lib, keyingi avlodda u haqdagi tasavvur bo'lmagani uchun undan anglashiladigan ma'no tushunarsiz bo'ladi. Bu o'rinda *tegirmon* deganda, ko'pchilik elektr tegirmonni tasavvuriga oladi va *suv quymoqning* aloqadorligini bilmaydi va natijada *tegirmoniga suv quymoq* frazemasining ma'nosini tushunmaydi.

Frazemalar semantikasi leksemalar semantikasidan murakkab bo'lib, unda birikmada mazmunan ikkilamchi nomlanish ustuvor bo'ladi. Bu esa konnotatsiya hisobiga amalga oshiriladi.

Fitrat o'zining "Oila" asarida frazeologizmlardan unumli foydalanganki, bu olimning ijod mavzusining qanday bo'lishidan qat'iy nazar ta'sirchanlik vositasi bo'lmish frazeologizmlardan foydalanishini anglatadi.

Asar didaktik xarakterda bo'lgani sababli unda ishlatilgan frazeologizmlar, asosan, ijtimoiy, axloq-odob, pedagogik, oila mavzularini ochib berish uchun qo'llangan.

Fitrat asarda *"shunda bolalar baxt siridan xabardor bo'ladilar"* [3. B. 86]\* jumlasini keltiradi va unda ijodiy ibora qo'llaydi. Bunda baxtga erishishning yo'lini bilib olish, boshdan o'tkazgan ma'lum tajribalar asosida baxtga erishishdan xabardor bo'lish ma'nolari ifodalanadi. Bu o'rinda baxtning, *baxtga erishishning siri* konnotativ xarakter kasb etmoqda.

Asar, yuqorida aytib o'tilganiday, ilmiy-ommabop uslubda yozilgan bo'lsa-da, matn mazmuni tashviq, targ'ib, didaktika bo'lgani sababli, Fitrat ta'sirchanlik ifodalashni asosiy o'ringa qo'ygani sababli ijtimoiy-didaktik frazeologizmlardan foydalangan yoki hosil qilgan: *og'irlik yuki erining elkasidan tushsin* (39-bet), er ham ana shunday ahdni *o'z bo'yniga oladi* (41-bet), *hayot boshidagi qiyinchiliklar* (47-bet), *ko'ngli soviydi* (62-bet) kabi.

Asarda oila masalasi, oila munosabatlari insonlarning uzviy aloqador rishtalari bilan ko'ngil, qalb bilan bog'liq ekanini e'tirof etgan Fitrat **ko'ngli soviydi** (62-bet), **ko'ngillari qoladi** (46-bet) kabi iboralardan unumli foydalanganining guvohi bo'lamiz. Ma'lumki, ko'ngil bilan bog'liq masala insonlar o'rtasidagi eng nozik munosabatlarning ifodasi sanaladi. Bu munosabatlarning buzilishi davosiz dard kabi, yamoq solib bo'lmas mato singari, yirtilgan qog'oz, singan oyna kabi tiklab bo'lmaydigan holat sanaladi. Shunga ko'ra asarda ushbu munosabat olim tomonidan nihoyatda nozik tushuncha sifatida beriladi.

*O'rtalarida yomon fe'l g'oliblik qilsa, o'zaro nafratlari ko'payadi va bir-birlaridan ko'ngillari qoladi. Bu holatda ularning yagona bir yo'li – sheriklikdan voz kechishlari bo'ladi.* (46-bet)

Ko'rinib turibdiki, **ko'ngil qolish** iborasi insonlarni bir-biridan ayirib yuboradigan, munosabatlarga nuqta qo'yadigan holatni bildirib kelmoqda. Xuddi shuningdek, **ko'ngli soviydi** (62-bet) frazemasini ham insonlar munosabatlarining buzilishini, yaqinlikning uzoqlashishini, ko'ngillarning yaqinligiga raxna solishini bildirib keladi.

*...biror chora qilmoqchi bo'lsa ham darrov ko'ngli soviydi.* (62-bet)

Asarda **bo'yniga tushadi** (39-bet), **bo'yniga oladi** (41-bet) kabi frazeologik birliklarda **bo'yin** leksemasi birikmaning yadrosini tashkil etib, matniy qurshovda *mas'ullik, e'tirof, ko'nmoq, itoat, yuklamoq, ag'darmoq, rozi bo'lmoq, ko'nmoq, zimmasiga, gardaniga yuklamoq* kabi ma'nolarni bildirib keladi. Bu ma'nolar mas'ullik semasi asosida hosil bo'lgan. Asarda keltirilgan *Xotin erining zavjasi, uying idorasi va bolalar tarbiyachisi, farzandini mehr bilan o'stirish majburiyatining bir qismi uning bo'yniga tushadi* (39-bet) matnida ham, *Er ham ana shunday ahdni o'z bo'yniga oladi* (41-bet) gapida ham "mas'ullik" semasi o'z ifodasini topmoqda.



Ushbu frazemaga sinonim sifatida ishlatilgan *Eri xizmatdan uyiga qaytsa, yaxshi va xushmuomala qilib mehribonligini ko'rsatsin, toki bozorning og'irlik yuki erining yelkasidan tushsin* (39-bet) gapida ham iborada mas'ullik belgilab qo'yilmoqda.

Yuqorida aytib o'tilganiday, frazeologik birliklar nutqiy jarayon mahsuli bo'lib, emotsional-ekspressivlikni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bo'yoqdorlik esa ijobiy yoki salbiy ta'sirchanlikni bildirib keladi. Asarda salbiy ma'no nozikliklarini ifodalashda olim iboralardan foydalanadiki, uning natijasi kitobxon uchun maqsadning ro'yobi sifatida namoyon bo'ladi. Bunga quyida qator misollar keltirish mumkin:

*Oldingi dinlarning tobelari orasida tarkidunyo qilib, xotin va farzand orzusidan ko'z yumgan odamlar ham mavjud bo'lgan.* (10-bet)

*Bunday xotin ming orzu va hasratlar bilan kasalliklarga chalinib, oqibatda dunyodan ko'z yumishi mumkin.* (22-bet)

*Hech bir iloj topmay, olgan xotini bilan achchiq hayot kechiradi, oxirgi nafasigacha uylangani va bebaxtligiga la'nat o'qib jon beradi.* (22-bet) Bu bemorligu motamlar hayotlarini zaharlaydi.(22-bet)

*Nikohdan so'ng bu kasallik oila a'zolarining hayotlarini nursiz qilib, uylanishining birdan-bir maqsadi bo'lgan farzandni yo'qqa chiqaradi.* (22-bet)

*Er bilan xotin bir-birlariga teng bo'lmay, biri boy va kalonzoda bo'lsa, ikkinchi tomonni faqirlik va zoti pastlikda ayblab, hayotini mudom azobga qo'yadi* (23-bet).

*Shu narsa aniqki, va'daga xilof qo'yilgan har bir qadam shu ahdu paymonning buzilishiga olib kelib, badbaxtlik va tinchsizlikni oilalar boshiga keltiradu.* (23-bet).

Ushbu matnlarda ishlatilgan iboralar salbiylik ottenkasiga ega bo'lib, ta'sirchanlikni, hissiy jarayonni ifoda etish uchun qo'llanmoqda.

Umuman olganda, Fitratning "Oila" asari didaktik asar bo'lishiga qaramasdan, muallif asar mohiyatini ochib berish uchun, kitobxonga mavzu bilan bog'liq voqeotlarni ta'sirchan yetkazib berish uchun frazeologik birliklardan unumli foydalagan.

#### Adabiyotlar:

1. Mahmudov N. Iboralar va ularning ma'no tarkibi tavsifi //Til va adabiyot ta'limi, 2022. – № 6. – Б.14–17.
2. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 80 б.
3. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 112 б.
4. Маматов А.Э. . Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари: Филол. фанлари док-ри.... дисс. – Тошкент, 1991.
5. Фитрат А. Танланган асарлар. IV жилдлик. 4 – жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullayeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Тошкент: Fan va texnologiya. 2009.
7. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан,1966.
9. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент: Фан,1966.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
11. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 2006.
12. Қурбонова М. Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунос. – Тошкент: Университет, 1997.



13. Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутки фразеологизмлари: Филол. фан. номзоди дисс. – Самарқанд, 2001.

***Muallif haqida ma'lumot:***

**NE'MATOVA Donoxon Saidjalolovna** – filologiya fanlari nomzodi, Andijon davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti. E-mail: donoxon.nematova@gmail.com

